

# **Yorqin payshanba aksiyasi doirasida aviachiptalarni qulay narxlarda xarid qiling**

**2025 5 Fevral**

6-fevral kuni haftalik aksiyamiz doirasida Toshkentdan Olmaota, Goa, Dehli, London, Mumbay, Myunxen va ortga qaytuvchi aviaqatnovlar uchun tariflar narxidan 15% gacha chegirma amal qiladi.

Aksiya faqat bir kun - 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi. Aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytidan, ilovadan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin. Yo'lovchi va yuk tashish tarifiga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'imlar va qo'shimcha to'lovlar belgilanadi, ularga 15% gacha chegirma qo'llanilmaydi.

Aksiyasining batafsil shartlari:

Aksiya muddati 2025-yil 06-fevral soat 00:00 dan 23:59 gacha;

Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

kattalar uchun tarifdan – 15% gacha;

2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 15% gacha;

cheirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;

Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan cheirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'imlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% cheirma bilan) undiriladi;

Ilgari sotib olingan aviachiptalar 06.02.2025da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga cheirma qo'llanilmaydi;

Cheirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni cheirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;

Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida

rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);  
Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;  
Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun  
faqat Toshkentdan Olmaota, Goa, Dehli, London, Mumbay, Myunxen va ortga  
qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'naliishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare  
aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun  
amal qilmaydi.

Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi.  
Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus  
A320ceo/320neo/321neo/A330, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.

Yo'naliishlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda  
hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa  
aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviaqatnovlarini hamda  
Uzbekistan Airways Express loukoster tizimi bo'yicha ham parvozlarni amalga  
oshiradi.

Uzbekistan Airways tarkibiga "Uzbekistan Helicopters" MChJ, "Uzbekistan Airways  
Technics" MChJ, "Catering" MChJ, "O'quv-mashq markazi" MChJ kabi kompaniyalar  
ham kiradi.